



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 80 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinatal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	



BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO ABSTSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LIQLIKKA ASOSLANGAN METODIK TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH

Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abssissaviy va ordinativ bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, metodik tamoyillari, o'qitish metodlari hamda o'quv-uslubiy vositalari tizimli tahlil qilingan. Fanlararo integratsiyaga asoslangan metodik ta'minotning bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslangan. Shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ topshiriqlar, kreativ keyslar, loyiha faoliyati hamda refleksiv metodlardan foydalanishning ilmiy-metodik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: metodik ta'minot, kreativ fikrlash, bo'lajak pedagog, fanlararo integratsiya, abssissaviy bog'liqlik, ordinativ bog'liqlik, kreativ topshiriqlar, loyiha metodi, refleksiya, didaktik vositalar.

Abstract: The article examines the improvement of methodological support for developing creative thinking in future teachers through interdisciplinary abscissa-based and ordinate-based connections. The study analyzes the didactic conditions, methodological principles, teaching methods, and instructional tools for developing creative thinking. The role of interdisciplinary integration in fostering the professional competencies of future teachers is substantiated. The paper also highlights the scientific and methodological potential of using integrative tasks, creative case studies, project-based learning, and reflective methods.

Key words: methodological support, creative thinking, future teacher, interdisciplinary integration, abscissa-based connections, ordinate-based connections, creative tasks, project-based learning, reflection.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования методического обеспечения развития креативного мышления будущих педагогов на основе междисциплинарных абсциссных и ординатных связей. Проанализированы дидактические условия, методические принципы, методы обучения и учебно-методические средства развития креативного мышления. Обоснована роль междисциплинарной интеграции в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов. Раскрыты научно-методические возможности использования интегративных заданий, творческих кейсов, проектной деятельности и рефлексивных методов.

Ключевые слова: методическое обеспечение, креативное мышление, будущий педагог, междисциплинарная интеграция, абсциссные связи, ординатные связи, творческие задания, проектный метод, рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, ularda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minotni takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish samaradorligi, avvalo, o'quv jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy reproduktiv o'qitish metodlari talabalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini to'liq rivojlantirish imkonini bermaydi. Shu sababli fanlararo integratsiyaga asoslangan metodik ta'minotni ishlab chiqish, kreativ topshiriqlar, loyiha texnologiyalari, muammoli ta'lim va refleksiv metodlardan kompleks foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda [1; 2; 6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning metodik ta'minoti pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi yaxlit didaktik tizim sifatida qaraladi. Mazkur tizimning samaradorligi ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari hamda baholash mexanizmlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlashga bog'liq. Shu bois metodik ta'minotni takomillashtirishda fanlararo integratsiya asosiy didaktik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik ta'minot quyidagi uch asosiy yo'nalishda takomillashtirilishi lozim:

- mazmuniy ta'minot – fanlararo integratsiyalashgan o'quv materiallarini ishlab chiqish;
- texnologik ta'minot – interfaol metodlar, loyiha metodi, kreativ keyslar va muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
- diagnostik ta'minot – kreativ kompetensiyalarni baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish.

Mazkur uch yo'nalishning o'zaro uyg'unligi bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni tizimli rivojlantirish imkonini beradi [3; 6].

Fanlararo abssissaviy bog'liqlik metodik ta'minotning mazmuniy asosini tashkil etib, pedagogika, psixologiya, xususiy metodikalar hamda axborot texnologiyalariga oid bilimlarning gorizontall integratsiyasini ta'minlaydi. Ordinativ bog'liqlik esa mazkur bilimlar asosida kreativ kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishning metodik mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan metodik ta'minot nafaqat o'quv materiallari majmui, balki kreativ faoliyatni boshqaruvchi didaktik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalar orasida muammoli vaziyatlar, kreativ keys-topshiriqlar, loyiha ishlari, STEAM elementlari, refleksiv kundaliklar hamda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Bunday metodik vositalar talabalarda bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash, fanlararo bog'lanishlarni aniqlash hamda mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [5; 6; 8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada metodik ta'minotni takomillashtirishning asosiy sharti sifatida fanlararo abssissaviy va ordinativ bog'liqlikka asoslangan integrativ topshiriqlar tizimini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu topshiriqlar bo'lajak pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, kreativ kompetensiyalarini izchil rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodika bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning izchil va uzluksiz tizimini yaratishga qaratildi. Metodikaning asosiy g'oyasi fanlararo abssissaviy va ordinativ bog'liqlikni o'quv jarayonining barcha bosqichlarida uyg'unlashtirish orqali talabalarning kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur metodika reproduktiv o'qitishdan kreativ faoliyatga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlaydi hamda bo'lajak pedagoglarning mustaqil fikrlashi va innovatsion faoliyatini rag'batlantiradi [2; 3; 7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilayotgan metodikada o'quv jarayoni to'rtta izchil bosqich asosida tashkil etildi.

Birinchi bosqich – motivatsion yo'naltirish. Ushbu bosqichda talabalarda kreativ faoliyatga ijobiy motivatsiyani shakllantirish, fanlararo integratsiyaning mohiyatini anglash hamda muammoli pedagogik vaziyatlarga qiziqishni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Mashg'ulotlarda muammoli savollar, brainstorming ("Aqliy hujum"), klaster va konseptual xaritalardan foydalaniladi.

Ikkinchi bosqich – fanlararo integratsiya. Bu bosqichda pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, axborot texnologiyalari va boshqa fanlarga oid bilimlar yagona didaktik vazifalarni hal etishga yo'naltiriladi. Talabalar bir pedagogik muammoni turli fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali bilimlarni transfer qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Aynan shu bosqichda abssissaviy bog'liqlikning metodik imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladi.



Uchinchi bosqich – kreativ faoliyatni tashkil etish. Mazkur bosqich metodikaning asosiy qismi bo'lib, unda loyiha metodi, kreativ keyslar, tadqiqot topshiriqlari, mini-loyihalar, debatlar hamda refleksiv mashg'ulotlar tizimli ravishda qo'llaniladi. Talabalar pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladilar, muqobil yechimlarni ishlab chiqadilar va ularning samaradorligini asoslaydilar. Bu bosqich kreativ kompetensiyalarning amaliy rivojlantirishini ta'minlaydi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv baholash. Ushbu bosqichda talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi hamda keyingi rivojlanish strategiyasini belgilashi tashkil etiladi. Refleksiv kundaliklar, o'zaro baholash, ekspert baholash va elektron portfolio metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi [4; 6; 8].

Metodik ta'minot quyidagi komponentlar asosida shakllantirildi:

- integrativ o'quv topshiriqlari;
- kreativ pedagogik keyslar;
- loyiha faoliyati;
- fanlararo muammoli vaziyatlar;
- refleksiv mashg'ulotlar;
- raqamli ta'lim resurslari;
- kreativ kompetensiyalarni baholash mezonlari.

Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unligi bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning yaxlit metodik tizimini hosil qiladi.

1-jadval: Kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasining bosqichlari va kutilayotgan natijalar

Bosqich	Asosiy metodlar	Kutilayotgan natija
Motivatsion	Muammoli savollar, brainstorming	Kreativ faoliyatga qiziqish
Integratsion	Fanlararo topshiriqlar, konseptual xaritalar	Bilimlarni transfer qilish
Kreativ-amaliy	Loyiha, kreativ keys, tadqiqot topshiriqlari	Innovatsion yechimlar ishlab chiqish
Refleksiv	Portfolio, o'zaro baholash, refleksiya	O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi

Taklif etilgan metodikaning asosiy afzalligi shundaki, u kreativ fikrlashni alohida fan doirasida emas, balki fanlararo bilimlar integratsiyasi asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda abssissaviy bog'liqlik bilimlarning mazmuniy uyg'unligini, ordinataviy bog'liqlik esa kreativ kompetensiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv bo'lajak pedagoglarning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan metodik ta'minotning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari bosqichma-bosqich tashkil etildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak pedagoglarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan integrativ topshiriqlar, kreativ keyslar, loyiha ishlari, refleksiv mashg'ulotlar hamda fanlararo muammoli vaziyatlar tizimli ravishda o'quv jarayoniga joriy etildi. Mazkur metodik vositalarning qo'llanilishi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va innovatsion qarorlar qabul qilish kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [2; 3; 6].

Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, metodik ta'minot tarkibiga kiritilgan fanlararo integrativ topshiriqlar talabalarning turli fanlardan olgan bilimlarini yagona pedagogik vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirdi. Natijada ular muammoga kompleks yondashish, bir nechta muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda eng maqbul pedagogik qarorni tanlash malakalarini egalladilar. Shuningdek, loyiha faoliyati va kreativ keyslardan foydalanish bo'lajak pedagoglarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Talabalar o'quv jarayonida real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, ularni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa metodik ta'minotning amaliy yo'naltirilganligini sezilarli darajada oshirdi. Refleksiv metodlarning muntazam qo'llanilishi talabalarning o'z faoliyatini tanqidiy baholash, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirdi. Natijada kreativ fikrlashning refleksiv komponenti boshqa komponentlar bilan uzviy ravishda rivojlandi va bu kasbiy kompetentlikning barqaror shakllanishiga xizmat qildi [5; 7].

**2-jadval: Fanlararo metodik ta'minotning kreativ fikrlash komponentlariga ta'siri**

Metodik vositalar	Rivojlantiriladigan komponent	Kutilayotgan pedagogik natija
Integrativ topshiriqlar	Kognitiv	Bilimlarni fanlararo transfer qilish
Kreativ keyslar	Faoliyatli	Muammolarga innovatsion yechim topish
Loyiha faoliyati	Motivatsion va faoliyatli	Mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish
Refleksiv mashg'ulotlar	Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish
Raqamli ta'lim vositalari	Barcha komponentlar	Kreativ kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish

Pedagogik kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, metodik ta'minotning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining fanlararo integratsiyani to'g'ri tashkil eta olishi hamda kreativ o'quv muhitini yaratishiga bog'liq. Agar metodik vositalar tizimli ravishda qo'llansa, talabalar faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki ularni yangi pedagogik vaziyatlarga moslashtirish, qayta ishlash va innovatsion mahsulotlar yaratish darajasiga erishadilar.

Tadqiqot natijalari asosida metodik ta'minotni takomillashtirishning quyidagi pedagogik shartlari aniqlandi:

- fanlararo integratsiyaning uzluksizligini ta'minlash;
- kreativ topshiriqlar ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish;
- nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish;
- refleksiv faoliyatni har bir mashg'ulotning majburiy komponentiga aylantirish;
- raqamli ta'lim resurslaridan maqsadli foydalanish.

Mazkur shartlarning ta'minlanishi bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning metodik samaradorligini oshiradi hamda ularning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi [2; 3].

Tadqiqotlar natijasida bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirish samaradorligi, avvalo, ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqligi ilmiy asoslandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish metodlari talabalarning bilimlarni o'zlashtirishiga xizmat qilsa-da, ularning kreativ kompetensiyalarini yuqori darajada shakllantirish uchun yetarli imkoniyat yaratmaydi. Shu sababli fanlararo abssissaviy va ordinataviy bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minot kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali didaktik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik ta'minot modeli integrativ topshiriqlar, kreativ keyslar, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim texnologiyalari, refleksiv metodlar hamda raqamli ta'lim vositalarini yagona didaktik tizimga birlashtirdi. Mazkur tizim talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, fanlararo bog'lanishlarni aniqlash, kreativ g'oyalarni ishlab chiqish hamda innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini berdi.

Mazkur metodikaning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda abssissaviy bog'liqlik ta'lim mazmunining gorizontal integratsiyasini, ordinataviy bog'liqlik esa kreativ kompetensiyalarning bosqichma-bosqich rivojlantirishini ta'minlaydi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini faqat bilimlarni egallash darajasida emas, balki ularni yangi pedagogik vaziyatlarda mustaqil va kreativ qo'llash darajasiga olib chiqadi [5; 8].

Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan metodik ta'minotning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Kreativ fikrlashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari bo'yicha tajriba guruhi talabalari nazorat guruhi talabalariga nisbatan yuqori natijalarga erishdilar. Bu esa metodik ta'minotni fanlararo integratsiya asosida tashkil etish bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- fanlararo integratsiyaga asoslangan metodik ta'minotni pedagogika yo'nalishidagi barcha mutaxassislik fanlariga bosqichma-bosqich joriy etish;
- kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ topshiriqlar bankini yaratish va muntazam yangilab borish;



- loyiha metodi, kreativ keyslar va reflektiv mashg'ulotlar ulushini amaliy mashg'ulotlarda kengaytirish;
- bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetensiyalarini baholash uchun kompleks diagnostik mezonlar tizimini ishlab chiqish;
- raqamli ta'lim platformalari orqali mustaqil ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi metodik resurslarni kengaytirish;
- professor-o'qituvchilarning fanlararo integratsiya va kreativ pedagogika bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish.

Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini boyitadi hamda oliy pedagogik ta'lim tizimida fanlararo integratsiyaga asoslangan innovatsion metodikalarni joriy etish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4312785>
2. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – T.: TDPU, 2006. – 263 b.
3. Norbo'taev X.B. Maktab o'quvchilarida didaktik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish metodikasi (biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlari misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2021. – 263 b.
4. Rahmatova F.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirish. Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – ChDPI, 2019. – 131 b.
5. Jumaev M.E. O'qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-matematik tayyorgarligi. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 240 b.
6. Xudayberganov G'.Q. Kreativlikni rivojlantirishda fanlarni abssissaviy va ordinataviy bog'lab o'qitishning o'rni. "Ilm sar-chashmalari" ilmiy-nazariy, metodik jurnali. № 2, 2025. – B. 166–169.
7. Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G'.Q. va boshq. Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma. – T.: BOOKMANY PRINT, 2024. – 207 b.
8. Каплунович И.Я. Учет индивидуальных особенностей мышления при обучении учащихся решению математических задач // Психологическая наука и образование. – М. – № 4. – 2003. – С. 74–79.
9. Sternberg R.J. Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. New York, 1985. – P. 9–21.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.